



КАЗАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЙ



**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»
MAVZUSIDAGI II XALQARO
ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA**

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rganish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,
Y.Shirnova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/VARU1211

TERMIN – TERMINOLOGIK BIRLIK**Ravshanxo'ja Rasulov***Chirchiq davlat pedagogika instituti professori,
filologiya fanlari doktori*

Annotatsiya: Ushbu maqolada til va jamiyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlik, shuningdek, terminlar mohiyati, ularning ilmiylik mezonlari va umumtil birliklaridan farqlanishi haqida tahliliy fikrlar ilgari suriladi. Til ijtimoiy hodisa sifatida jamiyatdagi ilmiy taraqqiyot va tafakkur mahsulini aks ettirsa, terminlar ushbu taraqqiyotning konseptual vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Muallif termin va so'z o'rtasidagi semantik, funksional va emotsional farqlarni tahlil qilib, terminlarga xos bo'lgan aniqlik, ilmiylik, mantiqiylik, emotsional neytrallik kabi belgilarni asoslab beradi. Shuningdek, "metodika-usuliyot", "metod-usul", "sistema-tizim" kabi terminlar o'rtasidagi noto'g'ri muqobillashtirish holatlari tahlil qilinadi. Ayniqsa, "sistema" terminining sun'iy tarzda "tizim" bilan almashtirilishi tanqidiy tahlil qilinadi. Maqolada terminologik aniqlik, fanda tushuncha va atama uyg'unligini saqlash zarurligi hamda lug'aviy o'zgarishlarga ehtiyotkorlik bilan yondashish lozimligi ta'kidlanadi. Ushbu tahliliy yondashuv o'zbek tilshunosligida ilmiy uslubiylkni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: terminshunoslik, ilmiy uslub, tushuncha va atama, lingvistik analiz, termin kriteriyalari, semantik tafovut, metod va uslubiylot, sistema va tizim, fan va til, atamalar birligi.

Annotation: This article explores the intrinsic relationship between language and society, focusing on the essence of terminology, its scientific criteria, and its distinction from general vocabulary. As language reflects the cognitive and scientific progress of society, terms act as conceptual tools of this development. The author analyzes the semantic, functional, and emotional differences between general words and terms, emphasizing terminological features such as precision, scientific clarity, logical consistency, and emotional neutrality. The paper also critically examines common cases of incorrect equivalence, including pairs like "metodika-usuliyot," "method-approach," and "systema-tizim." In particular, the forced replacement of the term *systema* with *tizim* is critically assessed. The article argues for the necessity of terminological clarity, consistency between concepts and terms in science, and a cautious approach to lexical replacements. This analytical perspective contributes to the development of scientific style and methodological precision in Uzbek linguistics.

Keywords: terminology studies, scientific style, concept and term, linguistic analysis, term criteria, semantic distinction, method and methodologies, system and structure, science and language, terminological consistency.

Аннотация: В данной статье рассматривается внутренняя связь между языком и обществом, а также сущность терминов, их научные критерии и отличие от общезыковых единиц. Язык, как социальное явление, отражает научный прогресс и мышление общества, а термины выступают концептуальными средствами этого прогресса. Автор анализирует семантические, функциональные и эмоциональные различия между словами и терминами, подчеркивая такие признаки терминов, как точность, научность, логичность и эмоциональная нейтральность. В статье критически рассматриваются случаи ошибочной эквивалентности терминов, в том числе пары "методика-усул" (методика-усулёт), "метод-подход" и "система-тизим". Особое внимание уделяется критическому анализу искусственной замены термина *система* на *тизим*. Подчеркивается необходимость терминологической точности, согласованности понятий и терминов в науке, а также осторожного подхода к лексическим изменениям.



Этот аналитический подход способствует укреплению научного стиля и методологической строгости в узбекском языкознании.

Ключевые слова: терминоведение, научный стиль, понятие и термин, лингвистический анализ, критерии термина, семантическое различиеб метод и методика, система и тизм, наука и язык, единство терминов.

Jamiyat taraqqiyoti til taraqqiyoti ekan, til jamiyat rivojining mezoni sifatida uni ko'zgu kabi aks ettirib turadi. Aniqrog'i jamiyatdagi barcha o'zgarishlar, yangiliklar, narsa-hodisa tilda - so'zda aks etadi. Demak, til aniq qilib aytganda, so'zdir,so'zlarning jamidir, so'zlar xazinasidir, imkoniyatidir.

Til xazinasidagi so'zlar shu darajada turli-tumanki, ma'no jihatdan rang-barangki, bu mutlaqo tabiiy holda moddiy va ma'naviy boyliklarning yaratuvchisi, ijodkori bo'lgan jamiyatdan, til va jamiyatning dialektik munosabatidan kelib chiqadi.

Til imkoniyatida shunday so'zlar borki, ular alohida muayyan semantik maydon sifatida fan bilan, fan taraqqiyoti bilan, fandagi yangiliklar, o'zgarishlar bilan bevosita, zaruran bog'liq yuzaga keladi, yashaydi. Ma'lumki, bunday so'zlar terminlar nomi bilan yuritilib, fan uchun xizmat qiladi. Aniqrog'i, fan haqida so'z borar ekan, uni terminsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki fanning "hayoti", faoliyati, "ijodkorligi" termin orqalidir, termin bilandir. Termin fanning kurash qurolidir, yaratish, yashash qurolidir, uning mavjudligidir.

Fan ilmiylikni, aniqlikni, mantiqiylikni talab qilar ekan, bu talablar, dastavval, birinchi navbatda, bevosita termin bilan bog'lanadi. Chunki termin ilmiyligi, aniqligi bilan muayyan fanga oidligi, ko'p ma'nolilik xususiyatiga ega emasligi (monosemantikligi),qo'llanish :rasi chegaralanganligi, ijobiy yoki salbiy bo'yoqqa (ma'no qirralariga, konnotatsiyaga) ega emasligi kabilar bilan boshqa guruh so'zlaridan, mavzuiy-semantik maydonlardan farq qiladi, ajralib turadi. Terminlar shunga ko'ra mustaqil hisoblanadi.

Professor O.S.Axmanova termin haqida shunday deydi: "Termin maxsus (ilmiy. texnik) tilga xos bo'lgan, maxsus tushunchani aniq ifodalaydigan va maxsus predmetlarni anglatish uchun yaratiladigan (qabul qilinadigan, o'zlashtiriladigan) so'z yoki so'z birikmasidir" [1]. Ushbu fikrga qo'shilgan holda, e'tirozimiz shundaki, muallif nima uchundir terminga izoh berishda, uning mohiyatini, ichki "dunyosini" ochishda, uni ta'riflashda asosiy mezon sifatida terminning aniqlik xususiyatiga, belgisiga urg'u beradi. Bunday qarash-munosabat boshqa qator manbalarda - lug'atlarda [2] ham uchraydi.

Fikrimizcha, termin haqida fikr yuritilar va unga izoh berilar hamda uning muhim belgi-xususiyatlari sanalar ekan, birinchi navbatda, uning ilmiylik xususiyati qayd etilishi, ayni xususiyatning dominanta ekanligi aytilishi lozim. Chunki termin, dastavval ilmiylik xususiyatiga - semasiga (ma'no komponentiga) ko'ra ajralib turadi. Termining qolgan barcha xususiyatlari: aniqligi, bir ma'noliligi, emotsionallikdan xoli ekanligi. qo'llanish qamrovining torligi, chegaralanganligi kabilar uning ilmiylik mohiyatidan tushunchasidan kelib chiqadi. Termin aynan mana shu nuqtasiga ko'ra umumiste'moldagi so'zlardan, atamalardan farq qiladi, ajratiladi. Shuningdek,



so'z, atama keng, umumiy;

Termin — tor, xususiy;

So'z, atama — nisbatan mavhum, abstrakt;

Termin — aniq, konkret;

So'z, atama — ilmiylik tushunchasiga (semasiga) ega emas;

Termin — ilmiylik tushunchasiga (semasiga) ega;

Atama — eskirgan, nofaol;

Termin — faol, harakatchan;

So'z — emotsionallikka, ekspressevlikka ega;

Termin — emotsionallikka, ekspressevlikka ega emas;

So'z — jamiyat, umumga, turli soha vakillariga oid;

Termin — fanga, fan vakillariga oid;

So'z — aloqa quroli:

Termin — fan quroli:

So'z — kelib chiqishiga ko'ra birlamchi:

Termin — kelib chiqishiga ko'ra ikkilamchi. U jamiyat taraqqiyotining muayyan davrida fan bilan, fan taraqqiyoti bilan, fan faoliyati bilan yuzaga kelgan.

So'z — leksikada o'rganiladi, leksikologiyaning tekshirish obyekti.

Termin — terminologik leksikaning vakili, a'zosi sifatida terminologiyada o'rganiladi va b.

So'zning ham, terminning ham hayoti xalq bilan, jamiyat bilan bog'liq. Chunki jamiyat bor ekan, so'z ham, termin ham yashayveradi, jamiyatga, fanga xizmat qilaveradi, muayyan vazifani bajaraveradi.

Shu o'rinda ayrim terminlar va ularning muqobili, muvofiq'i sifatida berilayotgan so'zlar haqida ham fikr, munosabat bildiramiz. Gap shundaki, ko'p yillardan beri metod, metodika termininig qo'llanishida uning o'zbekcha muqobilining, sinonimining berilishida noaniqlikka, chalkashlikka yo'l qo'yilib kelingan edi. Aniqrog'i, aslida *metod – usul* [3] *metodika usuliyot* (usullarning jami yig'indisi). Shunday ekan, nima uchun metodika terminining o'zbekcha muqobili sifatida usuliyot emas, balki *uslubiyot* so'zi qo'llanilmoqda? Vaholanki, *uslubiyot* so'zi *usuliyot* so'zi bilan shaklan tovush qurilishiga, tuzilishiga ko'ragina umumiy, ancha o'xshash, ammo mohiyatan, mazmunan esa boshqa. *Uslubiyot uslub (stil)* so'zidan olingan bo'lib, uslubning jamini, yig'indisini bildiradi. Shuningdek, *uslub* so'zidan *uslubshunoslik* so'z — termini, tilshunoslikning alohida sohasini bildiruvchi til birligi yuzaga kelgan. Shunga ko'ra kundalik hayotda, ayniqsa, fanda maorif jarayonida tez-tez uchrab turadi, *ilmiy-uslubiy ishlar, ilmiy-uslubiy qo'llanmalar, ilmiy-uslubiy manbalar* so'z birikmalaridagi uslubiy so'zining qo'llanilishini maqsadga muvofiq emas deb hisoblaymiz. Negaki ushbu so'z *metodika* — *metod* termini ifodalaydigan mazmunni, ma'noni bermaydi, berolmaydi ham. Boshqacha aytganda, *ilmiy-uslubiy ishlar emas, ilmiy-usuliy ishlar, ilmiy-usuliy manbaalar, ilmiy-usuliy asarlar* deyilishi to'g'ri. Yana ham to'g'risi va yana ham maqsadga to'la muvofiq'i, mazmunan anig'i, qat'iyi *ilmiy-metodik qo'llanmalar, ilmiy-metodik manbalar,*



ilmiy-metodik ishlar, ishlanmalar, to'plamlar deyilishidir. Chunki *metodika, metodik* terminlari faol bo'lib, mo'ljaldagi tushunchani (ma'noni) aniq va to'liq beradi. Uslubiy so'zi esa faolsiz bo'lib, mazmunan metodik terminiga yaqinlashsa, ammo ayni terminning o'rnini aynan, yetarli darajada, to'liq bosolmaydi va undagi tushunchani yetkazib, to'la-to'kis berolmaydi. Qolaversa, ilmiy-uslubiy qo'llanmalar, manbalar deyilishida g'alizlik ham bo'lib, uning talaffuzi ham qiyin kechadi. Shunga ko'ra bunday hollarda *metodik* terminining qo'llanishini har jihatdan to'g'ri bo'ladi, deb hisoblaymiz.

Yuqorida aytilganlarga ko'ra manbalar, qo'llanmalar, tadqiqotlar, ishlanmalar bilan bog'liq holda fikr berishda *ilmiy-metodik* ishlar (yoki manbalar, tadqiqotlar) deb qo'llanishi odat tusiga kirishi lozim. Chunki bu mazmunan aniqligi, mantiqiyliigi, talabga javob berishi, g'alizlik, har xillik, chalkashlikdan qutqarishi, fanga oidligi va eng muhimi, ilmiyligi bilan ajralib turadi.

Shu o'rinda shuni ham aytishimiz shart. Hozirda uslubiy so'zi ma'no kengayishi natijasida u *metodik, usuliy* so'zlarining vazifasini bajarishiga to'la o'tdi. M: o'quv-uslubiy jurnal, qo'llanma va b. Aslida esa mantiqiy prinsipga ko'ra o'quv metodik yoki o'quv-usuliy jurnal, qo'llanma deyish lozim.

Shu o'rinda *sistema* terminiga ham to'xtalib o'tsak. *Sistema* termini [4] salmoqliligi, ilmiy jihatdan chuqur mazmunga egaligi, dunyo miqyosida qo'llanishi, ayniqsa, fanda faolligi, ilmiy nutqqa ham, ilmiy - ommabop nutqqa ham xosligi bilan ajralib turadi. U terminologiya sohasining, terminologik leksikaning eng yetakchi, eng muhim, eng faol, eng nufuzli terminlaridan biri hisoblanadi, o'zida ilmiy tushunchani tashiydi. Shunga ko'ra u aniqlikka egadir. Shunday ekan, ushbu terminning mantiqiy "yuki"ni ko'tarish, tashish uchun majburan qo'llanayotgan *tizim* so'zi, uning *sistema* termini o'rnida ishlatilishi maqsadga muvofiqmi?, To'g'rimi? Albatta, yo'q. Nima uchun? Shuning uchunki, birinchidan, eng muhimi *tizim* so'zida, uning mohiyatida ilmiylik belgisi-tushunchasi yo'q. Demak, ikkinchidan, u termin emas, termin bo'lolmaydi. Uchinchidan, ayni so'z mazmunan noaniq, nisbatan mavhum. To'rtinchidan, *tizim* so'zi umumiste'molda, kundalik nutq jarayonida kam ishlatiluvchi, asosan, so'zlashuv nutqiga oid bo'lgan so'zdir. Yana ham anig'i, *tizim* so'zi "ip, sim va sh.k.ga terilgan narsa, shoda, Bir *tizim* marvarid. Bir *tizim* marjon. Bir *tizim* pomidor qoqi. Bir *tizim* qalampir" [5] izohini beradi.

Sistema esa termin sifatida mohiyatan qism (bo'lak) va butun munosabatidan. ularning dialektik bog'liqligidan, uzviy birligidan tashkil topadi. Yana ham anig'i *sistema* "...qismlardan tashkil topgan butunlik: bir butunlikning (butundan iborat narsaning muayan tartibda joylashgan va o'zaro bog'langan elementlari (qismlari)ning birlashmasi, jami; u yoki bu nazariya asosida yotgan prinsiplar (nuqtayi nazar, qarashlar)ning jami; umumiy vazifaga ko'ra o'zaro bog'langan a'zolarining jami"[6]. Masalan: quyosh sistemasi, falsafiy sistema, pedagogik sistema, tarbiya sistemasi, yer sistemasi, so'z yasallish sistemasi, so'z turkumlari sistemasi, kelishiklar sistemasi, grammatik sistema va boshqalar.



Ma'lum bo'ldiki, *sistema* terminiga xos qism va butun munosabati, ular orasidagi uzviylik, dialektik bog'liqlik ilmiy uslubga xoslik, aniqlik, keng ma'nodagi fanga oidlik *tizim* so'zida yo'q.

Tizim so'zining o'ziga xos qo'llanish :rasi bo'lib, u so'zlashuv nutqiga oidligi, tilimizning lug'at tarkibidan mustahkam o'rin egallaganligi, milliyligi, o'z o'rnida turli shakllarda-yasalishlarda ijtimoiy vazifa bajarishi bilan alohida qadrlanadi.

Aytilganlarga ko'ra *tizim* so'zining *sistema* termini o'rnida qo'llanishi sun'iy, majburiy bo'lib, bu yuzaki, shaklan o'zbekchalashtirish bo'lib, mohiyatan, mazmunan talabga javob bermaydi. Binobarin, ayni jarayon amaliyotda o'zini oqlamaydi. Aksincha, noaniqlikni, g'alizlikni keltirib chiqaradi. Qiyoslang: til tizimi, unlilar tizimi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar tizimi, quyosh tizimi, yer tizimi, davolash tizimi, o'quv tizimi va boshqalar.

Shu o'rinda aytishimiz shart. Hozirda tizim so'zining qo'llanilish :rasi juda kengayib, mano kengayishi natijasida u *sistema* terminining o'rnini qat'iy egalladi, *sistema* terminiga nisbatan tilda qo'llanish faolligi ortib, ushbu termin qo'llanilishi lozim bo'lgan o'rinlarda tizim so'zi ijtimoiy-funksional faollashdi. U jamiyat tomonidan fan :rasida yetakchi so'z-“termin”ga aylandi. Shu yo'nalishda mustahkam o'rin egalladi. Natijada 2008-yil, 2020- yillarda nashr qilingan 5 jildli “O'zbek tilining izohli lug'at” larining 4-jildining 84-85-betlarida ayni so'z quyidagicha izohlanadi: 3. O'zaro bog'liq va uzviy tartibda bo'lgan narsa-hodisalar birligi majmui. 4. O'zaro bog'liq qismlardan tashkil topgan tuzilma... [7] va b.

O'zbek tilining 1981-yilda nashr qilingan 2 jildli izohli lug'atining 2-jildida (171-betda) tizim so'zining yuqorida qayd etilgan izohlari yo'q.

Yuqorida qayd etilgan fikrlarni obyektiv, struktura, diagnoz, realizatsiya, programma, texnologiya, kriminal, sitata, ekspress, stadion, assotsiatsiya, aktiv, sivilizatsiya, monitoring, baza kabi terminlar va ularning muqobili sifatida berilayotgan so'zlarga nisbatan ham aytish mumkin.

Jamiyatda, til va jamiyat dialektikasida terminlarning qo'llanishi, ularning turli sabablarga ko'ra lisoniy jarayonga kirib kelishi va faol ishlatilishi mutlaqo tabiiy bo'lib, bu til siyosatining, jamiyat taraqqiyotining obyektiv, mantiqiy, zaruriy mahsuli hisoblanadi. Kirib kelayotgan terminlarning o'zbekcha muqobili bo'lgan taqdirda ham ulardan voz kechib bo'lmaydi. Ularni ham bilishimiz va ulardan ham o'rinli foydalanishimiz lozim. Chunki ular dunyo miqyosida faolligi bilan, fan uchun xizmat qilishi bilan muhimdir. Shuningdek, jamiyat bor ekan, fan, taraqqiyot bor ekan, ularning (terminlarning) funksional qamrovi, :rasi kengayib boraveradi. Bu jarayon jamiyat taraqqiyotining obyektiv mahsuli sifatida ijobiy baholanishi lozim. Ayni jarayonlarning oldini olish va unga qarshi asossiz kurash olib borish dialektik falsafani-metodologiyani, til va jamiyat dialektik munosabatini tushunmaslik, nazariya bilan amaliyotining uzviyligini tan olmaslikdir.

Xullas, termin fan, texnika, san'at, adabiyot, siyosat kabilarning “vakili”, faoliyat quroli, yashash usuli sifatida tilning leksik sistemasida alohida e'tiborga, fan taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan, faqat o'zigagina xos qator



xususiyatlari bilan ajralib turuvchi, jamiyatga, uning taraqqiyotiga faol xizmat qiluvchi va jamiyat ilmiy taraqqiyoti darajasini ko'rsatuvchi muhim mezonidir, fan taraqqiyotining eng asosiy ko'zgusidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов.- М.,1966, с. 474.
2. Олим Усмон, Ренат Дониёров. Русча интернационал сўзлар изоҳли луғати. - Т : Г. 1965.451-б; Д.Э.Розенталь Д.Э., М.А.Теленкова М.А. Словарь справочник лингвистических терминов. -М., 1976. -С.486.
3. Усмон О., Ренат Дониёров. Ўша луғат, 278-бет; Ўзбек тилининг изоҳли луғати, М.1981,461-бет; Ўзбек тилининг изоҳли луғати, II жилд. - Т., 2020, 582-б.
4. Ахманова О.С. О'sha lug'at 412-bet. Д.Э.Розенталь Д.Э., Теленкова М.А., О'sha lug'at. 390-б. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, III жилд.- Тошкент, 2020. 526-б. А.Ҳожиёв. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. -Тошкент, 1985, 77 -б.
5. Ўзбек тилининг изоҳли луғати II том. -М., 1981. 171-б; Ўзбек тилининг изоҳли луғати, IV жилд. -Тошкент, 2020, 84-б.
6. Кондаков Д.Э. Логический словарь. - М.: 1971, 475-б., Ўзбек тилининг изоҳли луғати, I II жилд. -Тошкент, 2020, 526-б.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. III жилд.- Тошкент, 2020, 84-б.

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/URXM6905

TURKIY TILLAR MORFEMALARI BIRIKUVIDAGI AYRIM CHEKLOVCHI OMILLAR HAQIDA

Mirzaqulov Tursunali O'tayevich

filologiya fanlari doktori, professor, Ipak yo'li innovatsiyalar universiteti

MirzakulovT.U.1948@gmail.com

Annotatsiya: Morfemika birliklari :rasida ham birikishning o'ziga xos qulaylik yaratuvchi, ham cheklovchi omillari mavjud. Har ikki omil- bir umumiy natija yasama so'z tarkibida morfemalarning birikishi qonuniyatlari haqida ma'lumot berishi kerak. Ushbu axborotda ayrim cheklovchi omillar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: til mazlun sathi, lingvopsixologik omillar, morfonologiya, morfotaktika, morfosintaksis, valentlik.

Annotation: Within the framework of morphological units, there are factors that both facilitate and restrict the combination of morphemes. Both types of factors should ultimately provide insights into the regularities of morpheme combination in derived words. This article discusses certain restrictive factors in this regard.

Keywords: language content level, psycholinguistic factors, morphophonology, morphotactics, morphosyntax, valency.

E.A. Zenskaya, I.S. Uluxanov morfemalar birikishi qonuniyatlari :rasidagi cheklovchi omillarini quyidagicha ko'rsatadilar: 1) semantik; 2) formal; 3) stilistik; 4) leksik; 5) so'z yasalishiga xos cheklashlar (1,323). Keyinchalik E.A. Zenskaya yuqoridagi omillarni qayta guruhlarga ajratadi: semantik, formal hamda so'z yasalishi bilan bog'liq cheklash tilning sistem tabiatdan, stilistik va leksik cheklash esa norma, uzus tabiatdan kelib chiquvchi cheklashdir.



DÜŞÜNCELER	
Rahmonova Shahlo Rashidovna. O'ZBEK MUMTOZ ADABIYOTIDA FAOL AYOL TASVIRI	135
Abdullayeva N.M. TURKIY XALQLAR ADABIYOTI VA XALQ OG'ZAKI IJODI MASALALARI	144
Заки Арсланович Алибаев. СОВРЕМЕННАЯ БАШКИРСКАЯ ПОЭЗИЯ В КОНТЕКСТЕ ВОСТОЧНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ	150
Акжолова Таңнура Нурбековна. КАРЫЛАРГА БОЛГОН МАМИЛЕНИН ЖОМОКТОРДО КАМТЫЛЫШЫ	158
Begmatova Dildora Abdunematovna. MAHMUD QOSHG'ARIYNING "DEVONU LUG'ATI-T- TURK" ASARIDAGI AYRIM MAQOLLAR TASNIFI	163
Erkinova Madinaxon Umid qizi. XALQ DOSTONLARIDA ALISHER NAVOIY VA HUSAYN BOYQARO DO'STLIGI TALQINI	171
Mansurova Yulduz Faxriddinovna. MUZAFFAR MIRZO IJODIDA TARIXIY OBRAZLAR TALQINI	175
Nizomjonova Durdona Nizomjonovna. TUSHUNISH - O'RGANISHNING BOSH MEZONI (S. AYNIYNING "ESKI MAKTAB" QISSASI ASOSIDA)	179
Qurbonboyeva Mohidil Isroil qizi. "ARBAIN" VA "NAZM UL-JAVOHIR" DAGI TIL OFATIGA: HIKMATLAR VA HADISLAR HAQIDA	184
Yusupova Gulchaman Baxtiyor qizi. O'ZBEKISTONDA "MAJOLIS"NING O'RGANILISHI	189
Avezova Maktuba To'rayevna. YASSAVIY VA UBAYDIY HIKMATLARIDA ILOHIY ISHQ TAJALLISI	193
Мухаббат Масадикова Гайбуллаевна, Қойшыбай Арайлым. TÜRK HALK HİKAYELERİNDE ANLATI YAPISI	198
Ishonxanova Iroda Abduvaxitovna, Almanova Sumbula Usmanovna. ALISHER NAVOIY SHAXSINING JAMIYATDAGI NUFUZI	205
II SHU'BA. HOZIRGI TURKIY TILSHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI	
Ravshanxo'ja Rasulov. TERMIN – TERMINOLOGIK BIRLIK	213
Mirzaqulov Tursunali O'tayevich. TURKIY TILLAR MORFEMALARI BIRIKUVIDAGI AYRIM CHEKLOVCHI OMILLAR HAQIDA	218
Е.М. Молдасанов, Абдувалитов Н.Б. АНА ТІЛІНІҢ СӨЗ СЫРЫ	222
Axmedova Shaxnozaxon Farxod qizi. TERMIN, ATAMA, SO'ZNING FARQLI VA O'XSHASH XUSUSIYATLARI	227
Esayeva Dilafruz Azamatovna. ONA TILI IMKONIYATLARINI KO'RSATUVCHI TIL BIRLIKLARI	233
Sharipova Xumora Zayniddinovna. OLMOSHLARNING KONTEKSTDA QO'LLANISHI	236
Umarova Diafruz Razzakberdiyevna. O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA ONOMASTIK BIRLIKLAR TADQIQOTI VA BOSHQA TURKIY TILLAR BILAN TAQQOSI	239

